

**JISMONIY TARBIYANING TARIXAN RIVOJLANISHI VA UNING  
PEDAGOGIK AHAMIYATI XUSUSIDA**

*Ne'matova Dilnoza Zafarjon qizi*  
*Chirchiq Davlat Pedagogika*  
*Universiteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jismoniy tarbiyaning tarixan paydo bo'lishi va uning rivojlanishi, ahamiyati, bugungi kunda jismoniy tarbiya va sportga qaratilgan e'tibor to'g'risida ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Jismoniy tarbiya, pedagogika, sport, mamlakat, sog'lom avlod, barkamol, jismoniy mashq.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi sharofati bilan barcha sohalarda har tomonlama yuksalish yuz berayotgan bugungi kunda sir emas. Tub ijtimoiy- siyosiy va ma'naviy o'zgarishlar, umumiy soniy qadriyatlar tizimida yangilanish, insonning barcha shaxsiy ehtiyojlari, talablari va manfaatlari birinchi o'ringa ko'tarilayotgan yosh avlodning ma'naviy-axloqiy va jismoniy imkoniyatlari yanada oshayotgani bunga yaqqol dalil bo'la oladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Hozirgi kunga kelib mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev chiqargan qator Farmonlari va Qarorlarini amalga oshirish orqali mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, jumladan umumiy ta'lim maktablarida o'quvchi yoshlarning jismoniy madaniyati va sportni rivojlantirish bo'yicha birinchi prezidentimiz I.A.Karimov boshlab bergan amaliy, moddiy, ma'naviy ishlar o'zining natijasini jahon hamjamiyati oldida isbotlab berdi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov "Sog'lom avlod uchun" ordenini topshirish marosimida so'zlagan nutqida: "Biz naslimizning kelajagi sog'lom avlod uchun kurash bosladik. Shu nom bilan orden ta'sis etdik va maxsus xalqaro jamg'arma tuzdik. Bu bejiz emas, albatta. Sog'lom avlod deganda biz faqat jismoniy baquvvat farzandlarimizni emas, balki ma'naviy boy avlodlarga ega bo'lgan xalqni tushunishimiz kerak. Bunday xalqni hech qachon, hech kim yenga olmaydi. Buni hammamiz yaxshi anglab olmog'imiz shart" degan fikrlarni keltirib o'tganlar.<sup>[1]</sup>

Jismoniy tarbiya – keng ma'noda umumiy tarbiya tushunchasining ichiga kiradi. Bu esa, jismoniy tarbiya, boshqa turdagi tarbiyalar singari pedagogika jarayoni bo'lib, umumiy ko'rinishi bo'yicha pedagogning boshqaruvchi roli, pedagogik prinsiplari bo'yicha hisoblanadi. Jismoniy tarbiyaning boshqa tarbiyalardan farqi shundaki bu jarayonda shug'ullanuvchi harakat ko'nikmasi va malakasini hamda jismoniy sifatlarini rivojlantiradi, bularning birlashishi esa jamiyatning jismoniy salohiyatini oshiradi.

Buyuk davlat arbobi, Sohibqiron Amir Temur o‘zining “Temur tuzuklari”da qo‘shin tarkibiga yosh navkarlar olishda quyidagi III qoidaga amal qilish kerakligini ta’kidlaydi:


1. Sog‘lom va baquvvat bo‘lishi;
2. Qilichdan mohirona foydalanishi;
3. Aql-zakovatiga va barkamolligiga.<sup>[2]</sup>

Ulug‘ munajjim va buyuk olim Mirzo Ulug‘bek o‘zining pedagogik qarashlarida jismoniy tarbiyaga alohida e’tibor qaratgan holatda: “Farzandingiz sog‘lom va baquvvat bo‘lib o‘shini istasangiz, uni kichik yoshidan jismoniy mashqlar bilan shug‘unlantiring va chiniqtiring”.<sup>[3]</sup> degan fikrlarni ilgari suradi.

Barcha davrlarda jamiyat uchun muhim vosita sifatida qaralib kelinayotgan jismoniy tarbiyaning kelib chiqishi insoniyatning paydo bo‘lish davrlariga borib taqaladi. Mehnat qilishning shartliligi, mehnat qila bilishlik malakalarini avloddan-avlodga berib borilishi jamiyat hayotida jismoniy tarbiyaning vujudga kelishida asosiy sabab bo‘ldi.

Jismoniy tarbiya gohida o‘yinlar va maxsus mashqlar sifatida amalga oshirilardi. U hamma uchun bir xilda teng olib borilar, tarbiya masalasini katta yoshdagilar o‘z zimmasiga olgan edi. Qadimgi davrda jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga, urf-odatlar, o‘yinlarni, har xil raqslarni kiritgan ibtidoiy din kata ta’sir ko‘rsatdi. Inson yeyish uchun ba’zi o‘ljalarni qo‘lga kiritishni dushmanlardan himoya qilishni yoki mol-mulkiga g‘amxo‘rlik qilishni ta’minlashga haraka qildi. Shu asnodda o‘z-o‘zidan jismoniy tarbiya insoniyat turmush tarzining bir bo‘lagi bo‘lib qoldi. Bu esa keyinchalik turli xil sport o‘yinlari, do‘stlik aloqalarini yo‘lga qo‘yilishiga turtki bo‘ldi.

Hozirgi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport yuqori rivojlanish darajasiga ko‘tarilgan va butun boshli bir tizim sifatida shakllangan. Yetuk olimlarimizdan T.Usmonxo‘jayev va O.Tursunovlarning “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubi” kitobida jismoniy tarbiya tizimining asosiy bo‘g‘inlari quyidagicha keltirilgan:



2017 - yil 1-avgustda O‘zbekiston kompartiyasi markaziy komitet va respublika hukumati “Respublika o‘quv yurtlarida jismoniy tarbiyaning axvoli va sportni rivojlantirish to‘g‘risida” qaror qabul qiladi.

Bunda barcha o‘quv yurtlarida xususan maktabgacha ta’lim muassasalari, maktab, oliy o‘quv yurtlarida jismoniy tarbiya ishlarini rivojlantirish, mutaxassislar tayyorlash, yoshlarni sportga jalb qilish borasida katta vazifalar qo‘yildi.

Ta’lim muassasalaridagi jismoniy tarbiyaga oid ishlar o‘quvchi va talabalardan havaskorlikni, tashabbuskorlikni uyushqoqlikda talab qiladigan juda xilma-xil shakllari bilan farq qiladi. Ular o‘quvchi va talabalardan tashkilotchilik ko‘nikmalari, faollilik, topqirlikni tarbiyalashda yordam beradi.

T.B Zayniddinov, M.A. Abdulazizovalar tomonidan yozilgan “Jismoniy mashqlarning tarixan rivojlanishi” maqolasida jismoniy tarbiyaning pedagogik ahamiyati quyidagicha jumladan:

1. Sog‘lomlashtirish
2. Har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash
3. Vatan mudofaasiga hamda mehnatga tayyorlash<sup>[5]</sup>

Shunga ko‘ra, har qanday jismoniy mashqlar mashg‘ulotning aniq vazifalaridan, metodlari va tashkil qilish formalaridan qat’iy nazar aholining salomatligini mustahkamlanishiga olib keladi. Insonni har tomonlama jismoniy rivojlantirish

jismoniy tarbiya jarayonida amalga oshirilishi mumkin. Insonning jismoniy sifatlarini tarbiyalash, unda harakat qila bilishning, bilim va malakalari hamda hayotiy-zaruriy amaliyotlarga katta ehtiyoj, sharoit yaratilgandagina, barkamol rivojlanish vujudga keladi.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya tizimining rivojlanishi davlatimiz birinchi prezidenti I.Karimov rahbarligida davlatimiz tomonidan qabul qilingan hujjatlarda, qarorlarda o‘z ifodasini topgan. Jumladan 2000-yil “Sog‘lom avlod”, 2014-yil “Sog‘lom bola” yili deb e‘lon qilinishi yoki ko‘plab sport maktablari va sportinshootlarining qurilishi amalga oshirilgan islohotlarga misol bo‘ladi. Undan tashqari keying yillarda jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha ko‘pgina kitoblar, jurnallar, maqolalar chop etilmoqda.

Olimlarimiz T.S.Usmonxo‘jayev “Sog‘lom bola – el boyligi”, “Milliy harakatli o‘yinlar”, O‘. Tursunov “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti”, J.Eshnazarov – “Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish” singari bir qator darsliklari, o‘quv qo‘llanmalari tarbiya bo‘yicha bilimlarni targ‘ibot qilishga yordam berib kelmoqda.

Jismoniy tarbiya tarixini o‘rganishning ahamiyati shundaki, u bo‘ljak pedagoglarning umumiy madaniy va siyosiy dunyoqarashini kengaytiradi, ularni jismoniy tarbiya tarixiy taraqqiyotning umumiy madaniy va siyosiy dunyoqarashini kengaytiradi, ularni jismoniy tarbiya tarixiy taraqqiyotning umumiy yo‘li va qonuniyatlari bilan tanishtiradi, ularning o‘tmish bilan hozirgi vaqtni tushuntirib olishlariga va respublikamizda jismoniy tarbiya tizimini bundan keyin ham takomillashtirish uchun to‘plangan ijobiy tajribalardan yaxshiroq foydalanishlariga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, mamlakatni dunyoga tanitishda eng ilg‘or usul bu – sportdir. Bufun shu maydonda, Osiyo, jahon, xalqaro sport musobaqalarida yurt bayrog‘ibi ko‘klarga ko‘tarayotgan o‘g‘il qizlarimizning yutuqlari zamirida, albatta, mohir pedagoglarning ham o‘z hissasi bor.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi T: “O‘zbekiston” 2003-yil.
2. I.Karimov – “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” – T: “Sharq” 1997 yil.
3. M.X.Tojiyeva, S.I.Xusandxo‘jayeva – “Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi”. T: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti. 2010-yil 9-12-betlar.
4. T.Usmonxo‘jayev, O‘.Tursunov “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti”. T: “O‘qituvchi” nashriyoti 2004-yil 22-bet.
5. Zayniddinov Tojiddin Bahriddinovich, Abdulazizova madina Abdukaxxor qizi – “Jismoniy mashqlarning tarixan rivojlanishi”. “Pedagogs” international research journal”.